

## O‘ZBEK TILIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING SEMANTIK TRANSFORMATSIYASI

*O‘razboyev Olimjon Rustam o‘g‘li*

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi frazeologik birliklar, frazemalarning semantik strukturasi hamda transformatsiyalanish jarayoni haqida ayrim mulohazalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Leksikalizatsiya, transformatsiya, birikma, frazeologik semantika, semantik-stilistik, komponent, frazeologik birlik.

**Abstract:** In this article, some comments are given about phraseological units in the Uzbek language, the semantic structure of phrases and the process of transformation.

**Key words:** Lexicalization, transformation, combination, phraseological semantics, semantic-stylistic, component, phraseological unit.

**Аннотация:** В данной статье даются некоторые комментарии о фразеологизмах узбекского языка, семантической структуре словосочетаний и процессе трансформации.

**Ключевые слова:** Лексикализация, трансформация, сочетание, фразеологическая семантика, семантико-стилистический компонент, фразеологическая единица.

Jahon tilshunosligida til elementlarining transformatsiyalanishi natijasida leksik ma‘noni grammatik ma‘noga transformatsiya qilish (ko‘chirish) asosida grammatikalizatsiya hodisasi, birikma ma‘nosining so‘z ma‘nosiga transformatsiyasi asosida leksikalizatsiya hodisasi<sup>1</sup> yuzaga kelishi e‘tirof etiladi. Shuningdek, so‘z birikmasi va frazeologik birliklarning tarkibiy va ma‘naviy transformatsiyasi asosida frazeologizatsiya hodisasi yuzaga keladi.

Do‘ppisini osmonga otmoq birikmasi tarkibidagi do‘ppi, osmonga va otmoq so‘zlarining o‘zaro uyg‘un ma‘naviy hamda sintaktik birikuvidan «do‘ppini osmonga otish bilan bog‘liq harakat»ni ifodalovchi ma‘no yuzaga keladi. Ayni paytda erkin bog‘lanmaning semantik transformatsiyasi asosida tarkibidagi so‘z-komponentlarga xos bo‘lgan «astoydil xursand bo‘ldmoq, quvonmoq» ma‘nosi shakllanadi. Do‘ppsini osmonga otmoq erkin bog‘lamaning obrazi shakllangan frazeologik ma‘noda namoyon bo‘ladi. Og‘iz ochmaslik, to‘nini teskari kiymoq, qo‘lini yuvib, qo‘ltiga urmoq, labini tishlamoq, tarvuzi qo‘ltig‘idan tushdi, kalavanning uchini yo‘qotmoq, kalavanning uchini topomoq, erkin bog‘lanmalarning semantik transformatsiyasi asosida ularning

<sup>1</sup> Eltazarov J. Grammatikalizatsiya hodisasi.-Samarqand.2018.-b.51.

frazeologik ma'nosi yuzaga keladi va aynan semantik transformatsiya va obrazlilik erkin bog'lanmadan farqlovchi differensial belgisi hisoblanadi. Shuning uchun ham til ilmidagi frazeologik birliklar semantik hodisa sifatida qaraladi.

Sh.Balli frazeologik semantikani ularning mutlaq belgisi deb e'tirof etib, birikmalarning leksik-grammatik, semantik va sintaktik yaxlit birliklar ekanligini ta'kidlaydi. V.V.Vinogradov, N.M.Shanskiy, O.S.Axmanova, V.L.Arxantelskiy, Y.A.Gvozdarev, A.G.Nazaryan, S.Royzenzon, Y.Avaliani, A.Butsuy kabi rus tilshunoslari frazeologizmlarni semantik hodisa ekanligini e'tirof etadilar. Turkiy tilshunolar Z.G.Uraksin, F.A.G'aniyev, G.X.Axunzyanov, L.K.Bayramova, M.F.Chernovlar, o'zbek tilshunosligida Sh.Rahmatullayeva, B.Yo'ldoshev, A.Mamatov kabi tilshunolar ikki yoki undan ortiq so'zdan tarkib topgan, tuzilishi jihatidan birikmaga, gapga teng, mazmunan so'zga muqobil, yaxlitligicha ustama ko'chma ma'no anglatadigan lug'aviy birliklarni frazeologik obyekt deb e'tirof etadilar.

SH.Rahmatullayev frazeologik birliklarning ma'no tabiatini bittadan ortiq so'z yaxlitligicha ma'lum bir obraz asosida, ko'chirish yo'li bilan semantik taraqqiyotini boshdan kechiradi<sup>2</sup> deb ta'kidlab muayyan obraz asosida yuzaga kelgan ma'noni frazeologik ma'no deb ataydi.

Bo'yniga qo'yimoq, yerga urmoq, yo'l bermoq kabi frazeologik birliklar ma'nosi tarkibidagi leksemalarga xos ma'nolar asosida izohlanib, ular erkin bog'lanma tarzda ham idrok etiladi. Kosani yerga urib chilparchin qildi gapida erkin bog'lanma tarkibidagi yer va urmoq so'zlarining o'zaro uyg'un ma'noviy hamda semantik birikuvidan «kosani yerga urish» harakati bilan bog'liq, tarkibidagi so'zlarga xos ma'noni ifodalaydi. Kechagi yig'ilishda uni rosa yerga urishdi gapida esa erkin bog'lamaga xos ma'noning transformatsiyasi uning frazeologik birlikka xos bo'lgan «ortiq darajada kamsitmoq» ma'nosini shakllantiradi.

Ammo boshini olib chiqib ketmoq, oyog'ini qo'lga olib, o'pkasini qo'ltiqamoq og'ziga oq it kirib, qora it chiqadi kabi frazeologik birliklar so'z birikmasi tarzda ishlatilmaydi. Inson o'z faoliyatida «boshi»ni olib chiqib ketish», «o'pkasini qo'ltiqlash» kabi harakatlarni bajarishi mumkin emas. Bu o'rinda so'z birikmasini unga xos bo'lmagan tarzda tatbiq etish, semantik transformatsiyalash asosida frazeologik birlikka xos ma'no shakllanadi. Demak, so'z birikmalari va frazeologik birliklar semantik, leksik, leksik-semantik, semantik-stilistik transformatsiyalanadi va bu jarayonda semantik transformatsiya va obrazlilik farqlovchi differensial belgilar bo'ladi.

1. Frazeologik birliklar tilda ko'plab uchraydigan, fikrni keng, obrazli, o'tkir ma'noli, qamrovli ifodalaydigan til birligi sifatida, hamma vaqt tuzilishiga ko'ra tarkiblidir. Morfologik xususiyatga ko'ra frazeologik birliklarning komponentlari turli

<sup>2</sup> Rahmatullayev Sh.O'zbek tilining frazeologik lug'ati. –Toshkent. Qomuslar bosh tahririyati. 1992.-B.5.

xil soʻz turkumlariga tegilshli boʻladi va bir-biri bilan toʻgʻri sintaktik munosabatlarda mavjud boʻladi.

2. Hozirgi oʻzbek adabiy tilida frazeologik birliklar tuzilishiga koʻra avvalo katta guruhga boʻlinadi:

3. Tuzilishiga koʻra gapga teng boʻlgan frazeologik birliklar: “boshi osmonga yetdi”, “koʻngli togʻday koʻtarildi”, “doʻppisini osmonga otdi”, “yuragi orqasiga tortib ketdi”, “oʻtakasi yorildi”, “koʻrgani koʻzi, otgani oʻqi yoʻq”, “koʻzlari qinidan chiqayozdi”, “astar-avrasini agʻdardi”, “yetti uxlab tushiga kirmaslik”, “hafsalasi pir boʻldi”, “yuragiga qil sigʻmadi”, “yurak-bagʻri qon boʻldi” kabi frazeologik birliklar tilda mazmunan tugal fikrni, grammatik jihatdan shakllangan, sintaktik qonun-qoidalar asosida birikkan holda uchraydi. Bu jihatlari bilan ular gapga tengdir.

Tuzilishiga koʻra soʻz birikmasiga teng boʻlgan frazeologik birliklar: “bozori chaqqon”, “koʻngli toza”, “koʻngli gʻash”, “yuragi taka-puka”, “yuragi daryo”, “yuragi keng”, “bahosi yoʻq”, “aqli butun”, “oq koʻngil”, “bekorchi xoʻja”, “dami baland”, “beti qattiq”, “ammamning buzogʻi” kabi frazeologik birliklar mazmunan tugal fikr anglatmay, grammatik jihatdan shakllangan, ikki yoki undan ortiq soʻz uyushmasidan tashkil topgan. Tuzilishiga koʻra bu ikki xil frazeologik birliklarni bir-biridan farqlash lozim. Tuzilishiga koʻra gapga teng boʻlgan frazeologik birliklar fikrni ifoda qilib, tugallangan ohang bilan aytiladi. Soʻz birikmasiga teng boʻlgan frazeologik birliklar esa tuzilish jihatidan ikki yoki undan ortiq komponentli boʻlib, bir butun holda leksik maʼno ifodalaydi.

Gapga teng boʻlgan frazeologik birliklar tuzilishi va ifoda maqsadiga koʻra hamma vaqt ham gapga teng boʻlavermaydi. Chunki bu turdagi frazeologik birliklarning hammasi ham grammatik jihatidan tugallikka ega boʻlmasligi, alohida, erkin, tugal fikrni anglatmasligi mumkin. Gapda ular boshqa soʻzlar yordamida aytilishi kerak boʻlgan fikrni yuzaga chiqaradi.

Gapga teng boʻlgan frazeologik birliklarni tuzilishi koʻra ikki guruhga ajratish mumkin: Birinchisiga u yoki bu voqea-hodisani, voqlikni atovchi, yaʼni nominativlikni ifodalovchi frazeologik birliklar kiradi. Masalan: “bir qoshiq suv bilan qotsa boʻlur”-goʻzal; “ilonning yogʻini yalagan”-mugʻambir; “qoʻl uchida ish qildi”-ayyor. Misollardan koʻrinadiki, bu turdagi frazeologik birliklar tugal fikrni ifoda etmasdan, biron-bir kishi xarakterini ataydi. Bu frazeologik birliklar gapning biror boʻagi sifatida ishtirok etadi.

Ikkinchi guruh frazeologik birliklar esa tugal fikr anglatib, grammatik jihatdan shaklanib, predikativlik xususiyatiga ega boʻladi. Ular gapda alohida yoki qoʻshma gapning bir boʻlagi sifatida qatnashadi. Masalan: “Alohida komissiyadan oʻtib, akademiyasiga putyovka ham oldim. Quvonchim olamga siaydi” (Gʻ.Gʻulom). “Bilaman ota, dedi va sen nima deysan, deb oʻgʻliga qaragan edi, uning quvonchi

ichiga sig‘may, og‘zi qulog‘iga iljaydi” (L.Mahmudov).

Ko‘rinadiki, birinchi gapdagi frazeologik birlik xususiyatiga, tugal mazmun kasb etishiga ko‘ra, alohida gap bo‘lib kelgan bo‘lsa, ikkinchi gapda esa qo‘shma gapning bir bo‘lagi sifatida qatnashgan.

Ma‘lumki, nominativlik xususiyatiga ega frazeologik birliklarning asosiy qismini so‘zning obrazli muqobillari tashkil etadi. Chunki deyarli barcha frazeologik birliklar leksikada o‘z muqobillariga ega.

Leksik-grammatik xususiyatiga ko‘ra bu frazeologik birliklar turlichadir. Ammo nutqdagi stilistik vazifasiga ko‘ra, ular asosan bir xil vazifani bajaradi. Gapga teng bo‘lgan frazeologik birliklar ham turli ma‘no qirralariga ega va birlikdagi voqelikni ifodalashga xizmat qiladi.

Ma‘lumki, hozirgi o‘zbek tilida frazeologik birliklar ikki komponentlidan o‘n komponentli va undan ziyod komponentli bo‘lishi mumkin. Gapga teng bo‘lgan frazeologik birliklar asosan ko‘p komponentli bo‘ladi. Masalan, tilimidagi “balog‘a uchramoq” frazeologik birligi ikki komponentli bo‘lsa, “berganning betiga qarama” frazeologik birligi uch komponentlidir. “Biri bog‘dan kelsa, biri tog‘dan kelmoq” frazeologik birligi esa olti komponentlidir. Yoki “bir kun tuz ichgan yerga, qirq kun salom ber” frazeologik birligi to‘qqiz komponentlidir. Misollardan ko‘rinadiki, frazeologik birliklarni tashkil etgan komponentlar turli xil so‘z turkumlariga tegishlidir. Bunda mustaqil so‘z turkumlaridan tashqari, yordamchi so‘z turkumlari ham ishtirok etadi. Masalan, ushbu frazeologik birlikning komponentlari quyidagi so‘z turkumlariga tegishlidir: “sichqonning ini ming tanga bo‘ldi” ot-ot-son-ot-fe‘l.

Ot va fe‘l modelidagi frazeologik birliklar. Bu frazeologik birliklar asosan ikki komponentli bo‘lib ot so‘z turkumiga va fe‘l so‘z turkumiga tegishli bo‘ladi. Misollar: “yuragi yorilmoq”, “yoqasini ushlamoq”, “ensasi qotdi”, “hafsalasi pir bo‘lmoq”, “o‘pkasi to‘lmoq”, “dog‘da qolmoq”, “terisiga sig‘maydi”, “g‘ashi kelmoq”, “yuragini tirnamoq”, “jizg‘anagi chiqmoq”, “esxonasi chiqmoq”, “g‘azabi qaynamoq”, “qoni qaynamoq”, “diyding qursin”, “yer yutqur”, “uying kuysin”, “beting qursin”, “yuraging ochmoq”, “yuragini bo‘shatmoq”, “so‘zida turmoq”, “tulkilik qilmoq”, “azaga aylantirmoq”, “ajali yetmoq”, “aytishib qolmoq”, “azob chekmoq”, “aljib qo‘ymoq”, “amalga oshmoq”, “amalga minmoq”, “andishaga bormoq”, “arvoq urmoq”, “armonda qolmoq”, “balog‘a uchramoq”, “balodan qytilmoq”, “balog‘a qolmoq”, “barakasi uchmoq”, “bardosh bermoq”, “baxti ochilmoq”, “bas kelmoq”, bag‘rini ezmoq“ va boshqalar. Misollardan ko‘rinadiki, tuzilishiga ko‘ra ikki komponentli va morfologik xususiyatiga ko‘ra ot-fe‘l modelida tuzilgan.

Shuni ta‘kidlash kerakki, birikma komponentlari grammatik jihatdan shakllangan bo‘lib, ot va fe‘l bir-biri bilan turlovchi va tuslovchi, ya‘ni kelishik, egalik, tuslovchi affikslar bilan sintaktik munosabatga kirishgan. Jumladan, “hayratda qolmoq” frazeologik birligida so‘zlar o‘zaro kelishik (-da) va fe‘lning tuslovchi affikslari,

“o‘pkasi to‘lmoq” frazeologik birligida esa (-si) egalik va fe’ning tuslovchi affikslari, yoqasini ushlamoq birikmasida (-si) egalik, (-ni) kelishik affikslari va fe’ning tuslovchi qo‘shimchalari orqali o‘zaro sintaktik munosabatga kirishadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Abdullayev Sh.D. Tarjima asarlarida frazeologik birliklar semantikasi (T.Qayipbergenov asarlarining o‘zbekcha tarjimasi asosida): Filol.fan.nom....diss.avtoref.Toshkent, 2006.axborotnomasi.-Urganch, 2014. №9.
2. Boltayeva B. Antonim frazemalar va ularning transformatsiyasi xususida //O‘zMU xabarlari. –Toshkent, 2015. №1./4
3. Boltayeva B. Boshlang‘ich sinf darsliklaridagi frazemalar transformatsiyasining o‘ziga xos xususiyatlari //AnDU axborotnomasi.-Andijon: 2017. №3.
4. Boltayeva B. Yavleniya ellipsisa vo frazeologizmax sovremennogo uzbekskogo yazika// Nauchnaya diskussiya: voprosi filologiya, iskusstvovedenii v kulturologi: Materiali VIII mejdunarodniy zaочноy nauchno-prakticheskoy konferensii. Chast II. )moskva, 2015.
5. Boltayeva B. O‘zbek tili frazemalarida allyuziya // Ilm sarchashmalari. UrDU axborotnomasi.Urganch, 2014.
6. Balli Sh, Fransuzkaya stilistika. M.Nauka, 1974.
7. Berdiyorov H., Rasulov R. O‘zbek tilining paremiologik lug‘ati. T., O‘qituvchi, 1984.